

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARINING AHAMIYATI

Axmedova Madina

Buxoro davlat universiteti talabasi

ahmedovamadina281@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonning tarixiy shaharlarining turizm sohasini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda joylashgan madaniy meros obidalari, ularning xalqaro turistik brend sifatidagi mavqei, hamda bu shaharlarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada turizm infratuzilmasini takomillashtirish va tarixiy shaharlarni jalb qilish markaziga aylantirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, davlat siyosatining roli va innovatsion yondashuvlar yoritib berilgan. Ushbu tadqiqotning natijalari turizmning O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, tarixiy shaharlar, turizm, madaniy meros, Samarqand, Buxoro, Xiva, turizm infratuzilmasi, iqtisodiy rivojlanish, madaniy rivojlanish, innovatsion yondashuv, xalqaro turizm, davlat siyosati.*

Kirish

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga ko‘tarish borasida, avvalo, ko‘hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda butun dunyo aholisini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimiy tarixiy yodgorliklar mavjud. Yer yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish orzusida yashaydilar. Ko‘p mamlakatlarda O‘zbekiston o‘zining ana shu shaharlari bilan mashhurdir

Adabiyotlar sharhi

O‘zbekistonning tarixiy shaharlarini turizm sohasida rivojlantirish masalasiga oid ko‘plab manbalar va tadqiqotlar mavjud. Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar asosan O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini o‘rganishga, turizmni rivojlantirish strategiyalariga va xalqaro tajribani o‘zlashtirishga bag‘ishlangan ilmiy ishlardan iborat.

Akademik manbalar: Turizm sohasi bo‘yicha yetakchi tadqiqotchilarning ilmiy maqolalari va monografiyalarida O‘zbekistonning tarixiy obidalari turizmning rivojlanishidagi muhim omil sifatida ko‘rsatilgan. Jumladan, Samarqand va Buxorodagi obidalarni saqlab qolish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Davlat hujjatlari va statistik ma’lumotlar: Turizmni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari va qonun hujjatlari sharhlandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari tarixiy shaharlarni xalqaro turizm markazlariga aylantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan siyosatni ko‘rsatadi.

Xalqaro tajriba: Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va tavsiyalari tahlil qilindi. Ular orqali O‘zbekistonning tarixiy shaharlarini global turistik yo‘nalishlarga aylantirishda qanday yondashuvlardan foydalanish mumkinligi ko‘rsatib berilgan.

Mahalliy tadqiqotlar va ommabop manbalar: O‘zbekistonlik olimlar va mutaxassislarning maqolalari, shuningdek, turizm bo‘yicha statistik tahlillar, tarixiy obidalar va ularning iqtisodiy ahamiyatiga oid ishlanmalar o‘rganildi.

Mazkur adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy shaharlarning turizm salohiyati yuqori bo‘lib, ularni samarali boshqarish va rivojlantirish O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy salohiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot materiallari va usullari

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga ko‘tarish borasida, avvalo, ko‘hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda butun dunyo aholisini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimiy tarixiy yodgorliklar mavjud. Yer yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish orzusida yashaydilar. Ko‘p mamlakatlarda O‘zbekiston o‘zining ana shu shaharlari bilan mashhurdir.

Toshkent

- Toshkent – Markaziy Osiyoning eng yirik shaharlaridan biri – O‘zbekiston Respublikasining poytaxtidir. Toshkentda «Jahon madaniyati yodgorliklari» ro‘yxatiga kiritilgan Usmon Qur‘oni hamda Beruniy kutubxonasi saqlanmoqda. Toshkent shahrining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari: Ko‘kaldosh madrasasi (XIV asr), Kaffol Shoshiy maqbarasi, (XV asr), Hazrati Imom arxitektura majmuasi (XVI asr), Abulqosim madrasasi (XIX asr), Baroqxon madrasasi (XVI asr), Jome’ masjidi (XIX asr), Zangiota majmuasi (XV-XX asr), zamonaviy arxitektura durdonasi sanalgan Amir Temur muzeyi, Amir Temur hiyoboni, Mustaqillik maydoni, Xalqlar Do‘stligi maydoni, Jasorat monumenti, Xastimom maydoni, Tilla Shayx masjidi, Hazrati Imom masjidi, Xadra maydoni, So‘fi Ota maqbarasi va boshqalar.

-

Samarqand

- Samarqand 2750-yillik tarixga ega. Temuriylar sulolasi davrida qurilgan arxitektura yodgorliklari ahamiyati jihatidan qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rimdagi arxitektura durdonalari qatorida turadi.

- Qadimiy Samarqandning markazi bo‘lgan Registon XV-XVIII asrlardagi Markaziy Osiyo bunyodkorligining yuksak namunalaridan biridir. Maydon uch tomondan Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari bilan o‘ralgan. Samarqand shahrining janubida joylashgan Amir Temur maqbarasida (XIV-XV asrlar) Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek kabi Temuriylar sulolasi vakillari dafn etilgan.

- Temuriylar davrida Samarqand yanada gullab yashnagan edi. Samarqandning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari: Afrosiyob (eramizdan oldingi VIII asr), Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi (1428 y.), Shohizinda arxitektura majmuasi, Hazrati Hizr masjidi (XIX

asr o‘rtalari), Bibixonim masjidi (1399 y.), Ulug‘bek madrasasi (1417 y.), Sherdor madrasasi (1619 y.), Tillakori madrasasi (1647 y.), Chorsu bozori (XVIII asr oxiri), Ruxobod maqbarasi (1380 y.), Oqsaroy maqbarasi (1470 y.), Amir Temur maqbarasi (1404 y.), Namozgoh masjidi (XVIII asr), Ishratxona maqbarasi (1464 y.), Xoja Axror majmuasi (XV-XX asrlar), Cho‘pon-Ota maqbarasi (1430 y.), Xoja Abdu Darun qabristoni (XV asr), Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi (IX-XX asr) va b.

Buxoro

- «Buxoro» so‘zi sanskrit tilida «Ibodatxona», so‘g‘d tilida «Tangri jamoli» ma‘nolarini anglatadi. Buxoro Buyuk Ipak yo‘lining yirik tijorat markazi bo‘lib hisoblangan. Buxoro o‘rta asrlarga mansub 140 dan ortiq arxitektura yodgorliklariga ega bo‘lgan «Muzey-shahardir». Poyi Kalon, Qo‘shmadrasa, Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi kabi ko‘plab yodgorliklar bundan ming yillar oldin qurilgan bo‘lib, hozirgi kunda ham mehmonlarni o‘zlariga jalb etmoqda. Buxoroning mashhurligini Al-Buxoriy, Narshaxiy, Rudakiy, Daqiqiy, Abu Ali ibn Sino va Bahouddin Naqshband kabi siymolar yanada sharaflashgan.

Buxoroning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari: Ark (XI asr), Bolohovuz majmuasi (XVIII asr), Ismoil Somoniy maqbarasi (IX asr), Chashmai-Ayub (1380 y.), Abdullaxon madrasasi (1596 y.), Modari-Xon madrasasi (1556 y.), Masjidi Baland (XVI asr boshlari), Gavkushon majmuasi (masjid, minora, madrasa) (XVI asr), Zayniddin Xoji xonaqosi (1555 y.), Poyi Kalon majmuasi (XII asr), Labihovuz majmuasi (XVI asr), Ko‘kaldosh madrasasi (1568 y.), Nodir Devonbegi xonaqosi (1620 y.), Ulug‘bek madrasasi (1417 y.), Abdulazizxon madrasasi (1652 y.), Bolohovuz masjidi (1712 y.), Sayfiddin Boharziy maqbarasi (XIII asrning ikkinchi yarmi), Bayonqulixon maqbarasi (XIV asrning ikkinchi yarmi), Namozgox masjidi (XII asr), Fayzobod xonaqosi (1598 y.), Chorminor madrasasi (1807 y.), Buxoro Amirining Sitorai Mohi-Xosa yozgi saroyi (XIX asr oxiri), Chor-Bakr majmuasi – Jo‘ybor xo‘jalari qabristoni (1560 y.) va b.

- Buxoroning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari: Ark (XI asr), Bolohovuz majmuasi (XVIII asr), Ismoil Somoniy maqbarasi (IX asr), Chashmai-Ayub (1380 y.), Abdullaxon madrasasi (1596 y.), Modari-Xon madrasasi (1556 y.), Masjidi Baland (XVI asr boshlari), Gavkushon majmuasi (masjid, minora, madrasa) (XVI asr), Zayniddin Xoji xonaqosi (1555 y.), Poyi Kalon majmuasi (XII asr), Labihovuz majmuasi (XVI asr), Ko‘kaldosh madrasasi (1568 y.), Nodir Devonbegi xonaqosi (1620 y.), Ulug‘bek madrasasi (1417 y.), Abdulazizxon madrasasi (1652 y.), Bolohovuz masjidi (1712 y.), Sayfiddin Boharziy maqbarasi (XIII asrning ikkinchi yarmi), Bayonqulixon maqbarasi (XIV asrning ikkinchi yarmi), Namozgox masjidi (XII asr), Fayzobod xonaqosi (1598 y.), Chorminor madrasasi (1807 y.), Buxoro Amirining Sitorai Mohi-Xosa yozgi saroyi (XIX asr oxiri), Chor-Bakr majmuasi – Jo‘ybor xo‘jalari qabristoni (1560 y.) va b.

Xiva

- Xiva – ko‘plab arxitektura yodgorliklari joylashgan, Ichon-qal‘ada qadimiy Sharq ruhini saqlab qolgan shahardir. Xivaning arxitektura yodgorliklari asosan madrasa, masjid va minoralar: Pahlavon Mahmud maqbarasi (1835-yil), Muhammad Aminxon madrasasi (1850–1855-yillar), Ko‘hna Ark, Tosh hovli, Olloqulixon karvonsaroyi (1855-yil)

kabilardan iborat. Rangli bezaklar berilgan Kalta Minor (1835-yil) va 218 ta naqshli ustunga ega bo‘lgan Juma masjidlarni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin. 2,5 kilometr uzunlikdagi devorga ega bo‘lgan Ichan-qal’a Otadarvoza, Shimoliy, Sharqiy, Janubiy, Buxoro va Toshdarvozalariga ega. Unda 40 dan ko‘proq quduqlar mavjud.

- Xivaning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari: Ichan-qal’a, Saidboy masjidi va madrasasi (XVIII asr boshi), Polvon Darvoza atroflari, Olloqulixon madrasasi (1834 y.), Qutlug‘murod-inoq madrasasi (1804 y.), Olloqulixon timi va karvonsaroyi (XIX asr), Abdullaxon madrasasi (1865 y.), Anushaxon masjidi va harami (1657 y.), Tosh hovli (Olloqulixonning saroyi) (1830 y.), Oqmasjid (1832 y.), Juma masjidi va minorasi (1788 y.), Said Olovuddin maqbarasi (XIV asr), Muhammad Aminxon madrasasi (1851 y.), Kaltaminor (1855 y.), Ko‘hna Ark (1868 y.), To‘ramurod minorasi (1888 y.), Sherniyozxon madrasasi (1718 y.), Borlandi masjidi (XIX asr), Arabxona madrasasi (1838 y.) va b..

O‘zbekiston tarixiy-me’moriy yodgorliklari

O‘zbekiston o‘zining ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur‘atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o‘ziga tortmoqda.

Asrlar mobaynida O‘zbekiston Buyuk ipak yo‘lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo‘g‘rofiyashunoslar va missionerlar, isti‘lochilar va zabt etuvchilarning yo‘lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O‘zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an‘ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Meros

O‘zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me’moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning “Butun dunyo me’rosi” ning maxsus ro‘yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me’moriy inshootlar o‘tmish zamonlarni o‘zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o‘ynaydi.

Toshkent

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti va Markaziy Osiyodagi eng katta shaharlardan biri. O‘tmishdagidek hozirgi paytda ham Toshkent o‘zimizning O‘zbekiston Havo Yo‘llari va xalqaro aviakompaniyalar yordamida xalqaro transport yo‘nalishlarining chorrahasidir.

Toshkent dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biridir. 2009-yilda u o‘zining 2200 yilligini nishonladi. Bir paytning o‘zida Toshkent zamonaviy ishlab chiqarish markazidir, bu yerda 500 dan ortiq kompaniyalar turli xil mahsulotlar; samolyotdan traktorgacha, televizordan to‘qimachilik va oyoq kiyimlargacha ishlab chiqaradi. Toshkent tez sur‘atlarda tarixiy yodgorliklar va zamonaviy osmono‘par binolarning o‘zaro uyg‘unligida zamonaviy rivojlangan xalqaro megapolisga aylanmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yuzga yaqin muzeylar ishlab turibdi va ularning yarmi mamlakatning poytaxtida joylashgan. Ularning har biri o‘zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Poytaxt markazida Temuriylar tarixi Davlat Muzeyi joylashgan bo‘lib, uning ulkan ko‘k gumbazi Samarqandning qadimiy gumbazini eslatadi. Uning eksponatlari

O‘zbekiston hududida o‘rta asrlardagi davlatchilik shakllarini shakllanishidan guvohlik beradi va Amir Temur davridagi fan, madaniyat va san’atning rivojlanishini aks ettiradi.

Samarqand

Asrlar mobaynida O‘zbekiston shaharlari Buyuk ipak yo‘li va qadimiy transkontinental magistral hayotida muhim rol o‘ynadi. Birgina Samarqand esa “Buyuk Ipak yo‘lining yuragi” deb nom oldi.

Qadim davrlarda Samarqand “Islom me‘morchiligi marvaridi”, “Dunyo ko‘zgusi” kabi nomlar bilan ta’riflangan. Qadimiyligi bilan Rim, Afina va Vavilonga teng bo‘lgan Samarqand o‘zining 2750 yilligini nishonladi. Samarqand buyuk qo‘mondon va Chingizxondan keyingi markaziy Osiyoning hukmdori Amir Temur davrida Buyuk Movarounnahr davlati poytaxti etib tanlanganda o‘zining eng yuqori gullab-yashnash nuqtasiga yetdi. Bu vaqtda keng qamrovdagi shaharsozlik ishlari amalga oshirildi. Buyuk hukmdor Samarqandda o‘z davrining eng mohir hunarmand va ustalarini to‘pladi va ular yaratgan ishlar asrlar mobaynida yashab kelmoqda. Amir Temurning nevarasi Ulug‘bek bu an‘analarni davom ettirdi. Bugunda Samarqandagi yodgorliklar go‘zal va ulkan. Bu shaharda qadim xarobalar, madrasa, maqbara va minoralarda saqlanib qolgan qadim tarixning nafasini his etish mumkin.

Afsonaviy Registon maydoni Markaziy Osiyoning takrorlanmas me‘moriy yodgorligidir. Qadimda bu maydon Samarqandning savdo va ijtimoiy markazi bo‘lgan. Bu yerda bir necha asrlik uch ulkan binolari Ulug‘bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari qad ko‘targan.

Go‘ri-Amir maqbarasi qadim Samarqandning yana bir marvarididir. Buyuk davlat hukmdori Amir Temur va uning ikki nevarasi jumladan sharqning buyuk olim va mutaffakiri Mirzo Ulug‘bek qabrlari joylashgan. Havorang lolalarning yaproqlari tig‘iz qilib joylashtirib chiqilgan g‘unchaga o‘xshash Go‘ri-Amir maqbarasi sayyohlar uchun juda taniqli joy.

Registon maydoni, Go‘ri-Amir, Bibi-Honim, Shoxi-Zinda maqbaralari, Ulug‘bek rasadxonasi va shuningdek bir qancha yodgorliklar shaharga tashrif buyuruvchilarni o‘ziga maftun qilib kelmoqda.

Buxoro

Qadimdan Buxoro vohaning zich aholiga ega markazi bo‘lib kelmoqda. Uning yoshi 2500 da. Qulay muhit va 140 dan ortiq qadimiy me‘moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Huddi to‘r bilan qoplangan Ismoil Samoniy maqbarasi, ulkan qo‘rg‘on va Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi Ark, Minorai Kalon, jonli labirint kabi ko‘plab masjid va madrasalar, karvon-saroylar, hammom kabi yodgorliklar muqaddas Buxoroning tengi yo‘q marvaridlaridan bo‘lib qoladi.

Xiva

Buyuk ipak yo‘li davridan buyon butunlay saqlanib qolgan shahar Xivadir. U “ochiq osmon ostidagi muzey” deb nomlanadi. Shahar markazidagi ko‘plab me‘moriy yodgorliklar joylashgan Ichan-Qala majmuasi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmiga tegishli. Buyuk Ipak Yo‘lining chorrahasida joylashganligi va bu yerdan karvon yo‘li o‘tganligi sababli Ichan-Qalaga dunyoning to‘rt tomoniga qaragan to‘rtta darvozalar qurilgan. Qal’a devorining balandligi huddi haqiqiy sharq ertaklaridagi kabi shaharga maftunkor ko‘rinish beradi.

Minoralar osmonga yetay deydi, va ularning orasida O‘zbekistondagi eng uzun minora Islom-Xo‘jadir. Uylarning tekis tomlari uzra maqbara va masjidlarning charaqlagan ko‘k gumbazlari viqor bilan turadi. Xivada xon saroylaridan bir qanchasi saqlanib qolgan bo‘lib ulardan eng mashxuri marosimlar o‘tkaziladigan, xon dam oladigan va xon xaramlari yashaydigan zal joylashgan ulkan Tosh-xovli saroyidir. Tashqi tomon va devor mozayka bezakli toshlar bilan qoplangan. Shaharning ajoyibligini bilish, tor ko‘chalarini o‘rganish va ”ochiq osmon ostidagi muzey” ning asl taftini his qilish uchun bir kun ham kamlik qiladi.

Termiz

Ko‘p qirrali O‘zbekiston tarixi shubhasiz uning geografik joylashishini ham aks ettiradi.

Termiz mamlakatning eng janubiy shahridir. Termiz Amudaryo sohilining o‘ng tomonida karvon yo‘lida asos solingan bo‘lib asosiy port sifatida 2500 yildan buyon shu vazifani bajaradi.

Eramizning boshlarida Termiz Markaziy Osiyoning asosiy buddizm markazi bo‘lgan. Qora-Tepadagi toshga o‘yilgan budda monastiri, Fayoz-tepadagi Buddha ibodatxonasi, ko‘plab ohakli loydan qilingan budda haykallar qoldiqlari sayyoh va budda sig‘inuvchilar uchun mashxur joy.

Termiz faqatgina o‘zining budda dini yodgorliklari bilangina mashxur emas. Bu yerda o‘rta asrlar boshiga tegishli bo‘lgan bir qancha qiziqarli tarixiy yodgorliklar ham bor. Ularning orasida Hakim at-Termiziyning qabri, Sulton Saodat ansambli (X-XVII asrlar) va afsonaviy Qirq-Qiz qal’asi (IX asr) mavjud.

Surxondaryo viloyati yodgorlik resurslari

Surxondaryo tarixi. Arxeologik yodgorliklari va ko‘hna manzilgohlar: Teshik tosh g‘ori, Machay g‘ori, Zarautsoy, Sopolli tepa, Dalvarzin tepa, Xotin Rabot, Ayritom.

Surxon me'morchiligi: Imom at - Termiziy maqbarasi. Mashhur muhaddis (hadis ilmi olim) lardan biri - Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad - Dahhok as - Sullamiy at - Termiziy hoki ustiga bunyod etilgan. Imom Termiziy 9 - asrda yashab, uzoq yillar Iroq, Isfaxon (Erondagi shahar), Xuroson (Erondagi viloyat), Makka va Madinada bo‘lgan. Ilm al - qiroat, ilm al - bayon, fiqh, tarix va eng asosiysi hadis ilmini puxta egallagan. Unga Imom al - Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Sayyid, Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn Gayxon kabi mashhur muhaddislar ustozlik qilishgan. Uning asarlari ichida "Al - jomi" ("Jamlovchi") asari mashhurdir. Unda payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatiga oid muhim manbalar mujassam. Imom at - Termiziy maqbarasi Sherobod tumanining Bug` qishlog`ida joylashgan.

Hakim at - Termiziy majmuyi. 9 - 11 - asrlarda Shayx Abu Abdulloh ibn Muhammad hakim at - Termiziy qabri ustiga qurilgan. Ichida oq marmardan qabr toshi va mahorat bilan bezatilgan mehrob bor. Toshga o‘yib o‘simliklar tasviri solingan va Qur’oni Karim suralari bitilgan. Majmuada maqbaradan tashqari masjid (11 - asr), xonaqoh (15 -asr) mujassam.

Sulton Saodat majmuyi. 10 - 17 - asrlarga oid. Termizlik sayyidlar avlodlari dafn etilgan maqbaralardan iborat. Maqbaraning asosiy peshtoqi sharqqa qaratilgan. Maqbaralar peshtoq va gumbazli chorsi xonalardan iborat.

Zurmala minorasi. Termizdan 10 km. masofadagi 12 metrli minora bo`lib, shu xaroba holatida ham ulug`vordir. Xom g`ishtdan terilgan. Minora eramizning dastlabki yillarida qurilgan.

Qirqqiz qal'asi. Mazkur xaroba yodgorlik Termizdan 6 km. masofada bo`lib, ikki qavatli saroydir. Xordiq chiqarish va yozgi issiq kunlarda saqlanish uchun 9 - asrda qurilgan. Birinchi qavatda 17 ta katta xona, 3 ta zal bor. Ikkinchi qavatda ham ushbu reja takrorlangan. Uni o`zbek xalqining 18 - asrdagi "Qirg`iz" dostoni bilan bog`liqligi haqida ham fikrlar bor.

Jarqo`rg`on minorasi. Jarqo`rg`on tumanida 18 - asrda qurilgan ushbu minora archa uslubida pishiq g`ishtlardan terilgan. Sokoli sakkiz yoqli. Sakkiz yoqning ettitasi yuzasida tokcha va g`ishtdan terilgan yozuvlar bor. Sakkizinchi yoqning eshigidan aylanma zinaga chiqiladi. Balandligi 30 metrga yaqin. Aylanasi 17 metrga yaqin, g`ishtdan turli shakllar berilgan.

Zarovutsoy qo`riqxonasi. Termizdan 100 km. masofada. Ko`hitang tog`ida joylashgan. Undagi 200 dan ortiq suratlardan 30 ga yaqini yaxshi saqlanib qolgan. Ularda ibtidoiy kishilarning ov qilish jarayoni tasvirlangan.

Xulosa

Mazkur maqola asosida quyidagi asosiy natijalar olingan:

1. **O`zbekistonning tarixiy shaharlarining turizm sohasidagi o`rni:** Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar nafaqat O`zbekiston balki jahon miqyosida ham katta turistik salohiyatga ega. Ularning madaniy va tarixiy obidalarini O`zbekistonning xalqaro turizm bozorida o`z o`rnini mustahkamlashiga xizmat qilmoqda.

2. **Turizm infratuzilmasining rivojlanishi:** So`nggi yillarda davlat tomonidan tarixiy shaharlarni rivojlantirishga qaratilgan qator dasturlar va investitsiyalar amalga oshirilgan. Bu turizm infratuzilmasining sezilarli darajada takomillashishiga olib keldi.

3. **Iqtisodiy va madaniy ta`sir:** Turizm sohasi nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki tarixiy shaharlarning madaniy hayotini jonlantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim vosita ekanligi aniqlandi.

4. **Innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirish:** Turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Virtual sayohatlar, onlayn bronlash tizimlari va interaktiv yo`nalishlar turistlar oqimini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

5. **Davlat siyosatining roli:** O`zbekiston hukumati tomonidan turizmni strategik rivojlantirish maqsadida qator qaror va dasturlar qabul qilingan. Ushbu chora-tadbirlar tarixiy shaharlarni jahon turizm xaritasida taniqli yo`nalishlarga aylantirish uchun asos bo`lmoqda.

Ushbu natijalar turizm sohasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini tasdiqlaydi va tarixiy shaharlarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishga bo`lgan hissasini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Tashkiliy - huquqiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining “Turizm to`g`risida” gi Qonuni. T.: 1999

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi”ning tashkil etish to‘g‘risidagi 2016 yil 2 dekabrda PQ-2666-sonli qarori

3.Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Aliyeva M., Norchayev A. Turizm menejmenti fanidan elektron darslik. –TDIU kutubxonasi, 2005.
2. Aliyeva M.T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.
3. I.A. Axmedov, A.A.Allaberganov. Turizm faoliyatini tashkil etish –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2004.
4. Komilova F. K. Xalqaro turizm bozori. –T.: TDIU, 2001.
5. Kvatalnov V.A. Turizm –M.: Finansi i statistika, 2004.
6. Qudratov G‘.X., Tuxliyev I. S. Turizm iqtisodiyoti. Uslubiy qo‘llanma. - Samarqand: SamISI, 2007.
7. Tuxliyev I. S. Turizmda strategik marketing. O‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamISI, 2010.
8. Tuxliyev I. S. va boshqalar. Turizmni rejalashtirish. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2010.